

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI**

Farg‘ona politexnika institutining  
rektori \_\_\_\_\_ O‘.R.Salomov  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023y.

Barcha ixtisosliklar bo‘yicha stajyor tadqiqotchilikka kirish sinovida xorijiy tillardan  
bilim darajasini belgilovchi

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONLARI**

**FARG‘ONA – 2023 y.**

«KELISHILGAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:

\_\_\_\_\_ J.Kambarov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 y.

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor:

\_\_\_\_\_ Z.Xamrokulov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 y.

Kafedra yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Bayon № \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 y.

«O'zbek tili va tillarni o'rgatish» kafedrasi mudiri: \_\_\_\_\_ U.Nishonov

Ushbu dastur Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4958-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimiga majburiy talablarni belgilaydi.

Unga ko‘ra: doktorantura va tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilar — ishlab chiqarishdan bo‘shagan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertasiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha fan doktori darajasi izlanuvchilari uchun oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shaklidir.

## **Kirish**

Amaliy chet tili fani O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tasdiqlangan til sifatida (ingliz, nemis tillari) o‘rgatiladi.

Dastur Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Respublikada chiqarilgan qaror va farmonlariga hamda chet tillarni o‘zlashtirish Yevropa darajalar tizimiga asoslanib tuzildi.

Ushbu dastur magistrnlarning o‘rganayotgan amaliy chet tilidan olgan bilimlari asosida og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishni hamda ulardan kelgusi ilmiy va kasbiy faoliyatlarida to‘la foydalanishni nazarda tutadi.

### **Dasturning maqsadi va vazifalari**

Lingvistik, kommunikativ, lingvo-mamlakatshunoslik, lingvo-madaniy, ilmiy hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdir. Lingvistik kompetentlik til tizimi haqidagi bilim va uning xorijiy tilda kommunikasiya jarayonida amal qilish qoidalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Kommunikativ kompetentlik nutqiy kommunikasiya shartlariga binoan xorijiy tilda kommunikasiya jarayonini nazarda tutadi. Muomala (nutq) vaziyati murojaat kimga qaratilgani va suhbatdoshlarning o‘zaro munosabati kommunikasiya jihatdan o‘ta muhimdir.

Lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasi tili o‘rganilayotgan mamlakat tarixi, ijtimoiy-siyosiy tizimi, geografik o‘rni, boshqa davlatlar bilan o‘zaro lingvo-strategik aloqalari kabilarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Lingvo-madaniy kompetensiyasi tili o‘rganilayotgan mamlakatning ayni paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivoji va shunga mos tarzda nutq muomala madaniyatini nazarda tutadi. Og‘zaki va yozma nutq amaliyotini tarjimaga yo‘naltirilgan malakalarini egallashni o‘z ichiga qamrab oladi.

Ilmiy kompetentlik til o‘rganuvchidan o‘z sohasi bo‘yicha ilmiy axborotlarni, tadqiqot natijalarini, xorijiy davlatlarning ilmiy yutuqlarini o‘rganish va o‘z ilmiy faoliyatlarida targ‘ib eta olishdan iborat.

Kasbiy kompetensiya doktorantura va tayanch doktorantura katta ilmiy xodim izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchi tadqiqotchi izlanuvchilar egallayotgan mutaxassisligi bo‘yicha xorijiy til orqali kasbiy yangiliklar, innovasion loyihalarni hayotga tadbiiq eta olishi, qo‘shimcha kasbiy malakalarni egallashni nazarda tutadi.

PhD bosqichida sanab o‘tilgan barcha kompetensiyalarga erishish – kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga, mustaqil fikrlash, izlanish malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## **Fan bo'yicha ishtirokchilarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

Amaliy chet tili o'quv fanidan kommunikativ kompetentlikka erishish jarayonida :

- xorijiy tillarda fikrni ifoda qilish usullari va ularning nutq og'zaki va yozma shakllarida qo'llanilishi qonuniyatlari;
- til sohibining keng tarqalgan kundalik va kasbiy vaziyatlarda so'zlagan nutqini tushuna olish;
- radio, televideniye, audio-videokassetalar orqali tinglash uchun berilgan kasbga oid autentik ilmiy matnlarni tushuna olish va ulardan o'zi uchun zarur bo'lgan axborotni ola bilish;
- matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish;
- turli janrga oid matnlarni chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga og'zaki va yozma tarjima qilish;
- jahonning turli davlatlari madaniyati xususiyatlarini qiyoslash, solishtirish va tahlil qilish;
- xorijiy mutaxassislar bilan kasbiy va maishiy vaziyatlarda jonli muloqot olib borish;
- soha bo'yicha, suhbat, nutq va ma'ruzalarni tinglab zarur bo'lgan axborotni yozib olish;
- o'qitish olib borilayotgan tilda ma'lumotlar to'plab annotasiya, referat, ma'ruza, taqdimot tayyorlash va taqdim eta olish;
- yangi informasion texnologiyalardan kasbga yo'naltirilgan maqsadlarda foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Talabgor doktorant va mustaqil izlanuvchilar o'z mutaxassisliklari bo'yicha ingliz va nemis tilida monologik va dialogik nutqini rivojlantiruvchi, ilmiy adabiyotlarni tushunishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli qarori ijrosi bo'yicha O'zbekiston davlat jaxon tillar universiteti va O'zbekiston ingliz tili o'qituvchilari uyushmasi bilan xamkorlikda xorijiy tillarni o'rganish, o'qitish va baholash (CEFR) tizimi, ingliz tili bo'yicha talabalarning bilim darajalarini xalqaro talab bo'yicha sertifikatlashtirish maqsadida oliy ta'limning davlat standartiga muvofik mazkur fan bo'yicha til o'rganayotgan o'qituvchilarning bilimiga, o'quviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

|   |  |
|---|--|
| <b>B1</b> Threshold or intermediate                     | B1 Gaplar tuzish, o'z xaqida ma'lumot berish, ilmiy ommabob mavzuni o'qish |
| <b>B2</b> Vantage or upper intermediate                 | B2 O'z mutaxassisligi bo'yicha muloqot olib borish                         |
| C Proficient User                                       | C O'rta bosqich  |
| <b>C1</b> Effective Operational Proficiency or advanced | C1 Mutaxassislik bo'yicha fikr almashish, rezyume taqdim etish             |
| <b>C2</b> Mastery or proficiency                        | C2 Prezentasiya qilish   |

### **Fanning amaliyotdagi o'rni**

Doktorant va mustaqil izlanuvchilarni tayyorlash amaliy chet tili sifatida o'rganilayotgan chet (ingliz, nemis, fransuz) tillari o'z mutaxassisligiga oid turli tashkilotlarda, xorijiy davlatlar bilan qo'shma korxonalarda, hamda davlat va nodavlat tashkilotlarda faoliyat ko'rsatishi bilan birga ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda yordam beradi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

O'rganilayotgan amaliy chet tili (ingliz, nemis) fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma, ilmiy jurnallar va elektron materiallardan foydalaniladi.

Ushbu fanni o'rganishda ta'limning zamonaviy metodlaridan, ya'ni elektron pochta, chet el kanallari va virtual haqiqiylikni o'zida jamlagan internetdan foydalanish lozim, ya'ni elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash, internet tarmog'idan maqsadli foydalanish bu kabi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish va rivojlantirishda katta samara beradi.

Talabgor tayanch doktoranturaga kirish imtihonini topshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligining talablari asosida V2 darajasidagi 30ta testdan iborat test savollarini bajaradi, notanish gazeta yoki jurnaldan olingan matnni tarjima qilib va gapirib beradi, olib borilayotgan ilmiy ish xususida gapirib beradi, jumladan ilmiy tadqiqot ishini mavzusini chet tilida yoritib beradi, xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy nashrlardagi maqolalari haqida axborot beradi.

## **Doktoranturaga kirish imtihoni uchun tayyorlangan matnlar.**

### **Ingliz tili uchun matnlar**

1. Cycling is bad for the environment
2. Men developed deep voices to scare other men.
3. Video games should be in Olympics.
4. Japan recession may hurt global economy.
5. Sony plans to launch electronic-paper watch.
6. Mcdonald's says no gm French fries.
7. Cutting up food helped human evolution .
8. Electric car does 0 to 100 kpn in 2.8 seconds.
9. Plans can make intelligent decisions.
10. Adidas to make shoes from ocean garbage.
11. Russia says Nato is its biggest threat.
12. Million people invited to read books.
13. Keeping cold could keep you thinner.
14. Fatherhood lessons to help families stay together .
16. Academy awards are 'For white Men'.
17. A 'dangerous rider
17. Effect of voice on people.
18. A popular sports
19. Shrinking of Japan's economy
20. Launch of electronic-paper watch
21. World wide image for good food .
22. Developing language habits.
23. Innovation in car industry.
24. Intelligent decisions.
25. Shoe from garbage.

26. The biggest danger.
27. The world's largest book club.
28. Loosing weight.
29. Responsibilities of fatherhood.
30. Hollywood and the movie industry.

### **Nemis tili uchun matnlar**

1. Die Mahlzeiten
2. Bodenschätze Usbekistan
3. Das Elektroauto
4. Der Umweltschutz.
5. [Wilhelm Conrad Röntgen](#)
6. Albert Einstein
7. [Die Zeit der Automatisierung](#)
8. Was ist Photovoltaik?
9. Weltmeister mit Sonnenenergie.
10. Freunde von Asis
11. Die [X-Strahlen](#).
12. [Rechenautomaten](#)
13. [Usbekistan strebt "gleich-unter Gleichen" zu sein.](#)
14. [Elektronenrechenautomaten](#)
15. Robert Koch
16. Mahlzeiten
17. [Die Zeit der Automatisierung](#)
18. Was ist Photovoltaik?
19. Weltmeister mit Sonnenenergie.



**Chet tili (ingliz va nemis tillari) fanidan kirish sinovida talabgorlarning bilim darajasini belgilovchi baholash mezonlari**

**Talabgorlarning bilimi 100 ballik reyting tizimi asosida baholanadi**

|   |                               |   |
|---|-------------------------------|---|
| Gazeta yoki jurnaldan olingan notanish matni tarjima qilish va gapirib berish | <b>46-50 ball (a'lo)</b>      | Talabgor berilgan matni lingvistik kompetensiyalar talablari asosida tushunish, tarjima qilish, fikrlash qobiliyatiga yuqori darajada bo'lsa  |
|   | <b>41-45 ball (yaxshi)</b>    | Talabgor berilgan matni lingvistik kompetensiyalar talablari asosida tushunishi, tarjima qilishi, o'z fikr va muloxazalarini to'g'ri bayon qila olsa  |
|   | <b>31-40 ball (qoniqarli)</b> | Talabgor berilgan matni lingvistik kompetensiyalar talablari asosida qisman tarjima qilsa, mazmunini bayon qilishda xatolarga yo'l qo'ysa   |
|   | <b>0-30 ball (qoniqarsiz)</b> | Matni to'g'ri tarjima va tushuna olmasa, mavzu bo'yicha tushunchaga ega bo'lmasa  |
| Talabgorning olib borilayotgan ilmiy ish xususidagi fikrlarini bayon etishi   | <b>46-50 ball (a'lo)</b>      | Talabgor xorijiy tilda ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha og'zaki shaklda to'liq va erkin gapira olsa, kelajakda uni tadbiq etish bo'yicha fikrlarini bayon eta olsa. O'qituvchining qo'shimcha savollariga javob bera olsa |
|   | <b>41-45 ball (yaxshi)</b>    | Talabgor xorijiy tilda ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha og'zaki shaklda gapira olsa, kelajakda uni tadbiq etish bo'yicha fikrlarini qisman bayon eta olsa   |
|   | <b>31-40 ball (qoniqarli)</b> | Talabgor xorijiy tilda ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha faqat o'qituvchining berilgan savollariga javob bera olsa   |
|   | <b>0-30 ball (qoniqarsiz)</b> | Talabgor xorijiy tilda ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha tasavvurga ega bo'lmasa, og'zaki nutqda fikrlarini bayon eta olmasa   |

\* Talabgor milliy yoki unga tenglashtirilgan B2 darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo`lsa xorijiy til bo`yicha sinovlardan ozod etiladi va maksimal ball bilan baholanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”2017yil 16 fevraldagi PF-4958-son Farmoni .3bob
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Chet tillar bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-sonli qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori
5. “British Council - EQUALS Core inventory for general English”. – Copyright British Council/EAQUALS, ISBN: 978-086355-653-1, 2010.
6. Boqiyeva G.H., Rashidova F.M. va boshqalar. Scale up. Teacher’s book. Course 1 ,2,3. – T.:G‘ofur G‘ulom, 2015
7. Alovitdinova X., Radjabova D. Va b. English for ESL and ESP learners. – T.:TMU,2012.
8. Ishmuxamedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. Ta’limda innovation texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste’dod, 2008.
9. Kerr P., Jones C. *Straightforward*. Intermediate. Student's Book. 2nd edition. — Macmillan, 2007.
10. Scrivener J., Bingham C., Tennant A., Wasserman S. *Straightforward Intermediate*. Teacher's book – Macmillan, 2007.
11. Tilbury A., Hendra L. A. *English Unlimited*. Upper Intermediate B2. Student's Book. – Cambridge University Press, 2011.
12. Tilbury A., Hendra L. A. *English Unlimited*. Upper Intermediate B2. Teacher's Book. – Cambridge University Press, 2011.
13. Jordan, R. *English for Academic Purposes*. – Cambridge University Press, 1997
14. “Kirkham L., Iriskulov A., Rashidova F. A Handbook for teachers of FL with reference to the CEFR. – Tashkent, 2013.
15. Marie Kavanagh “English for automobile industry”, Oxford, 2015.



## Internet saytlari:

1. <http://www.teachingenglish.org.uk/think/articles/listening>
2. [http://www.usc.edu/dept/education/CMMR/CMMR\\_BTSA\\_home.html#Resources\\_BeginningTeachers](http://www.usc.edu/dept/education/CMMR/CMMR_BTSA_home.html#Resources_BeginningTeachers)
3. <http://www.teachermentors.com/MCenter%20Site/BegTchrNeeds.html>
4. <http://www.inspiringteachers.com/>
5. <http://teachnet.org/ntpi/research/prep/Cooper/http://www.altteacher.org/Mentoring.html>
6. [www.examenglish.com](http://www.examenglish.com)
7. <http://www.education.gouv.fr>
8. <http://www.educnet.education.fr>
9. <http://www.educationprioritaire.education.fr>
10. <http://www.elodil.com/historique>.
11. <http://www.edufle.net>
12. <http://www.francparler.info/accueil>
13. <http://www.francparler.info/accueil>
14. <http://www.leplaisirdapprendre.com>
15. <http://www.enseigner.tv>(Enseigner avec TV5)
16. <https://www.dw.com/de/deutsch-lernen/s-2055>